Nega til örganuvçilar yangi sözlarni tez unutadilar? Takrorlaş strategiyalari, mnemonika

Iroda Yormamatovna Beknazarova
irodabeknazarova77@gmail.com
Hosila Şuhrat-qizi Haqnazarova
Samarqand davlat çet tillar instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson xotirasining öziga xos xususiyatlari hamda yangi sözlarni unutişga ta'sir etuvçi psixologik va kognitiv omillar tahlil qilinadi. Xususan, xorijiy til örganuvçilar duç keladigan muhim muammolardan biri - yangi sözlarni samarali yodlaş, ularni uzoq muddatli xotirada saqlaş va nutq jarayonida mustaqil qöllaş masalalariga e'tibor qaratiladi. Maqolada kognitiv psixologiyaning til örganiş jarayonidagi örni, unutiş sabablari, takrorlaşning ahamiyati va esga tuşiriş usullarii yoritiladi. Şuningdek, luğat boyligini oşirişga xizmat qiluvçitakrorlaş va mnemonik usullarning imkoniyatlari körib çiqiladi. Yangi sözlarni turli kontekstlarda qöllaş orqali ularni mustahkam özlaştiriş masalasi ham tahlil etiladi. Maqolaning maqsadi xorijiy til örganuvçilarga yangi sözlarni uzoq muddat eslab qoliş va ulardan amaliy foydalanişda yordam beradigan ilmiy asoslangan strategiyalarni örganiş hamda ularning ahamiyatini yoritişdan iborat.

Kalit sözlar: xorijiy til, unutiş, luğat boyligi, kognitiv psixologiya, takrorlaş, faol esga tuşiriş, takrorlaş, mnemonika, til örganiş strategiyalari

Why do language learners forget new words quickly? Repetition strategies and mnemonics

Iroda Yormamatovna Beknazarova
irodabeknazarova77@gmail.com
Hosila Shuhrat-qizi Haqnazarova
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article analyzes the specific characteristics of human memory, as well as the psychological and cognitive factors that contribute to the forgetting of new words. It focuses on key challenges faced by foreign language learners: effectively memorizing new vocabulary, retaining it in long-term memory, and independently applying it during speech. The article explores the role of cognitive psychology in the language-learning process, the causes of forgetting, the importance of repetition, and various methods for recall. Furthermore, it examines the potential of repetition and

(cc) BY

mnemonic techniques for expanding one's vocabulary. The process of solidifying the acquisition of new words by using them in diverse contexts is also analyzed. The objective of this article is to explore scientifically grounded strategies that assist foreign language learners in retaining new vocabulary over the long term and applying it practically, while highlighting the significance of these approaches.

Keywords: foreign language, forgetting, vocabulary, cognitive psychology, repetition, active recall, mnemonics, language learning strategies

Kiriş. Nima sababdan inson xorijiy tildagi sözning ma'nosini tuşunsa-da, uni ma'lum vaqt ötgaç eslay olmaydi yoki kundalik muloqot jarayonida qöllaşda qiyinçilikka duç keladi? Bu savol xorijiy til örganuvçilar uçun dolzarb muammolardan biridir. Çunki tilni örganiş jarayoni nafaqat yangi sözlarni yodlaş, balki ularni xotirada saqlaş, kerakli vaziyatda esga tuşiriş va nutqda töğri qöllaşni ham talab etadi. Aslida sözni taniş (retseptiv bilim) va uni nutqda erkin işlatiş (produktiv bilim) bir-biridan farq qiluvçi, turli darajadagi bilimlardir. Şuning uçun matnda uçragan sözni tuşuniş hali uni eslaş va qöllaş mumkinligini kafolatlamaydi.

Bu hodisani tuşuntirişda kognitiv psixologiya muhim örin tutadi. U insonning axborotni qabul qilişi, qayta işlaşi, saqlaşi va esga tuşirişi kabi aqliy jarayonlarni örganadi. Uşbu yönaliş doirasida olib borilgan tadqiqotlar xotiraning işlaş mexanizmlarini tuşuniş hamda ta'lim jarayonini samarali taşkil etiş uçun muhim nazariy asos yaratadi. Masalan, Kreyk va Lokxartning [1-2] işlov beriş çuqurligi (levels of processing) konsepsiyasiga köra, axborotning xotirada qança vaqt saqlanişi uning dastlabki kodlaş jarayonida qançalik çuqur qayta işlanganiga boğliq. Sözning faqat şakli yoki tovuşiga e'tibor beriş yuzaki işlov bölib, uning ma'nosini tahlil qiliş, mavjud bilimlar bilan boğlaş esa çuqur işlovdir va barqarorroq xotira izini qoldiradi. Şu bois sözni luğatdan köçirib, qayta-qayta öqiş tez unutilişiga olib kelişi mumkin. Bundan taşqari, takrorlaş vaqtining ham ahamiyati katta: tadqiqotlar bir martalik ziç takrorlaşga qaraganda vaqt oraliğida taqsimlangan takrorlaş uzoq muddatli esda saqlaşga köproq yordam berişini körsatadi [3-8].

Xotirani mustahkamlaşning samarali yöllaridan biri mnemonikadir. Mnemonika ma'lumotlarni mavjud bilimlar, taniş obrazlar va mazmunli boğlanişlar bilan birlaştirişga asoslanadi. Uning içida «kalit söz» (keyword) usuli xorijiy sözni öz tilimizdagi öxşaş tovuşli söz orqali yorqin obrazga boğlaşni nazarda tutadi [8]. Yodlaşga oid qadimiy usullardan biri - loci usuli esa ma'lumotlarni tasavvurdagi taniş joylar (masalan, uy xonalari yoki kundalik yöl) bilan boğlaş orqali eslab qolişga yordam beradi. Bunda har bir söz ma'lum bir «joy»ga qöyiladi, keyinçalik esa şu joylarni tartib bilan «aylanib çiqiş» orqali sözlar esga tuşiriladi. Empirik tadqiqotlar ham bu usulning samaradorligini körsatadi: [4] da ingliz tilini xorijiy til sifatida örganuvçilar bilan ötkazgan tajribada loci usuli oddiy takrorlaş usuliga nisbatan

(cc) BY

sözlarni uzoq muddatli xotirada saqlaşda samaraliroq ekanini aniqlagan. [5] da esa boşlanğiç sinf öquvçilarida loci, kalit söz va tayanç söz (peg word) usullarini taqqoslab, loci usuli guruhi luğat bilimini tekşirişda boşqa guruhlardan yuqori natija körsatganini qayd etgan. Şunday bölsa-da, mnemonik usullar sözni xotiraga joylaştirişga köproq yordam beradi; ularni nutqda erkin qöllaş uçun esa sözni turli kontekstlarda muntazam işlatib turiş zarur.

Nima uçun yangi so'zlar unutiladi? Unutiş inson xotirasining tabiiy xususiyatlaridan biridir. U har doim ham xotiraning zaifligini anglatmaydi. Ba'zan ma'lumot yetarliça o'zlaştirilmagani sababli, ba'zan esa uni esga tuşiriş uçun kerakli bog'lanişlar faollaşmagani tufayli inson so'zni eslay olmaydi. Yangi so'zlarni unutişga bir neçta omil ta'sir qilişi mumkin.

Diqqatning yetişmasligi. Xotira izi axborot dastlab qanday qayta işlanganiga bog'liq [1]. Agar o'rganuvçi so'zni boşqa iş bilan band holda, şoşilib yoki mexanik tarzda o'qisa, so'z faqat yuzaki, ya'ni şakl va tovuş darajasida qayd etiladi. Uning ma'nosi va boşqa so'zlar bilan aloqasi esa tahlil qilinmaydi. Natijada hosil bo'lgan xotira izi bo'ş bo'ladi va tezda yo'qoladi [1; 2]. Şuning uçun so'zni «ko'rib çiqiş» va uni ongli ravişda o'zlaştiriş bir xil narsa emas.

Takrorlaşning yetarli emasligi. Yangi so'z bir marta uçraşib, keyin uzoq vaqt takrorlanmasa, uning izi susayib boradi. Biroq takrorlaşning soni emas, vaqt bo'yiça qanday taqsimlangani ham muhim. Cepeda va hamkasblarining meta-tahlili bir zumda ketma-ket takrorlaşdan ko'ra, takrorlaşlar orasida tanaffus qilinganda ma'lumot yaxşiroq saqlanişini ko'rsatadi. Eng samarali oraliq esa ma'lumotni qança vaqtdan keyin eslaş kerakligiga bog'liq [3]. Demak, bir keçada 50 ta so'zni yodlaş vaqtinçalik natija beradi, bir neça kunga bo'lib takrorlaş esa uzoq muddatli natija beradi.

Mazmuniy bog'lanişlarning yetişmasligi. Işlov beriş çuqurligi konsepsiyasiga ko'ra, so'z ma'nosi tahlil qilinsa va mavjud bilimlarga bog'lansa, u barqarorroq esda qoladi [1-2]. Ro'yxat ko'rinişida yodlangan, ma'nosiz «yalang'oç» so'zlar esa bunday tayançga ega bo'lmaydi. Aynan şu sababli mnemonik usullar, masalan, kalit so'z va loci usullari so'zga obraz va joy orqali qo'şimça bog'laniş beradi [4; 5; 8,9]. Ahour va Berenji tajribasida loci usuli oddiy takrorlaşdan to'rt haftadan keyingi tekşiruvda ham samaraliroq çiqqan [4].

O'xşaş ma'lumotlarning aralaşişi. Bir-biriga o'xşaş ma'lumotlar xotirada bir-biriga xalaqit berişi mumkin. Bu interferensiya nazariyasining asosiy g'oyasi bo'lib, o'xşaşlik ortgani sari o'rganiş va eslaş qiyinlaşadi deb hisoblanadi [10-17]. Til o'rganişda bu ko'pinça ma'nosi yaqin so'zlar (masalan, rang nomlari yoki kiyim nomlari) bir vaqtda o'rgatilganda namoyon bo'ladi. Tinkham tajribalarida semantik guruhlar (bir toifadagi so'zlar) o'rganişga to'sqinlik qilgan, mavzuviy guruhlar (bir vaziyatga oid so'zlar) esa yordam bergan [15]. Şunga qaramay, bu masala yakuniy hal bo'lmagan: keyingi tadqiqotlarda natijalar aralaş çiqqan va ba'zilari semantik

(cc) BY

guruhlaşning uzoq muddatda foydasini ham ko'rsatgan [10; 16]. Şuning uçun «o'xşaş so'zlarni heç qaçon birga o'rgatmang» deb qat'iy aytiş to'g'ri emas, ularni bir vaqtda berişda ehtiyot bo'liş kerak, deyiş aniqroq.

Faol esga tuşirişning yetişmasligi. Ko'p o'rganuvçilar so'zlarni qayta-qayta o'qiydi, lekin o'zini sinab ko'rmaydi. Roediger va Karpicke tajribalarida material faqat qayta o'qilgan guruh tezkor testda yaxşi natija ko'rsatgan, ammo ikki kun va bir haftadan keyingi testda oldin o'zini sinagan guruh ança yuqori natija bergan. Qiziqarlisi, qayta o'qigan talabalar o'z xotirasiga ko'proq işongan [9]. Bu «bilaman» degan hissiyot va haqiqiy esga tuşira oliş bir narsa emasligini ko'rsatadi. Amalda bu so'zning tarjimasini yopib qo'yib eslaşga uriniş, kartoçkalar va o'z-o'zini tekşiriş orqali amalga oşiriladi.

Amaliy qo'llaşning kamligi. So'zni tuşuniş (retseptiv bilim) va uni nutqda işlatiş (produktiv bilim) turli darajadagi bilimlardir. Agar so'z faqat o'qişda uçrasa, uni nutqda va yozuvda işlatiş uçun kerakli yo'l mustahkamlanmaydi. Mnemonik usullar so'zni xotiraga joylaştirişda yordam bersa ham, uni muloqotda erkin qo'llaş ko'nikmasi faqat turli kontekstlarda tez-tez işlatiş orqali şakllanadi [5; 6]. Şuning uçun yangi so'zdan o'zingiz gap tuziş, uni suhbatda yoki kundalikda işlatişga uriniş unutişga qarşi eng muhim çoralardan biridir.

Asosiy qism. Şunday qilib, yangi so'zlarni unutiş faqat xotira hajmiga bog'liq emas. O'rganiş jarayonida axborot qanday qabul qilinişi, qayta işlanişi va mustahkamlanişi ham muhim ahamiyatga ega. Şuning uçun faqatgina o'rganiş emas, takrorlaş ham muhim. Takrorlaş o'rganilgan ma'lumotlarni xotirada mustahkamlaşga xizmat qiladigan asosiy strategiyalardan biridir. Yangi so'z bir marta eşitilgan yoki o'qilgan bo'lsa, uning xotiradagi izi hali nozik bo'ladi va vaqt o'tişi bilan tez susayadi. Takrorlaş esa bu izni qayta faollaştirib, uni kuçaytiradi va keyingi safar eslaşni osonlaştiradi. Biroq takrorlaşning samaradorligi faqat uning soniga emas, balki qanday taşkil etilişiga ham bog'liq [18-19].

Ko'pçilik til o'rganuvçilar yangi so'zlarni ketma-ket bir neça marta o'qiş yoki ularning tarjimasini qayta-qayta ko'riş orqali yodlaşga harakat qiladi. Bunday usul dastlab tanişlik hissini kuçaytirişi mumkin: so'z ko'z oldida turgani uçun o'rganuvçiga u allaqaçon o'zlaştirilgandek tuyuladi. Lekin bu ko'pinça aldamçi hissiyot bo'ladi. So'zni ko'rib turib taniş va uni yopib qo'yib, o'zi eslab aytiş bir xil narsa emas. Ketma-ket takrorlaşda so'z qisqa muddatli xotirada uşlab turiladi, şuning uçun o'şa zahoti tekşirilganda natija yaxşi bo'ladi. Ammo bir neça soat yoki kundan keyin ko'p so'zlar xotiradan çiqib ketadi va o'rganuvçi «hammasini yodlagan edim-ku» deb hayron bo'ladi. Natijada sarflangan vaqt va kuç kutilgan samarani bermaydi.

Cepeda va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar takrorlab o'rganişning samaradorligini ko'rsatadi [3]. Ular yuzlab tajribalar natijalarini umumlaştirib, bir xil miqdordagi takrorlaş bir zumda emas, vaqt oralig'ida taqsimlanganda ma'lumot

(cc) BY

yaxşiroq saqlanişini aniqladi. Bu hodisa «taqsimlangan takrorlaş effekti» (spacing effect) deb ataladi. Bunda takrorlaş vaqtini to'g'ri taqsimlaş ma'lumotni uzoq muddat saqlaşga yordam berişi mumkin. Muhim jihati şundaki, eng samarali oraliq doim bir xil emas. U ma'lumotni qança vaqtdan keyin eslaş kerakligiga bog'liq: imtihon bir haftadan keyin bo'lsa, takrorlaşlar orasidagi tanaffus qisqaroq, bir neça oydan keyin bo'lsa, uzunroq bo'lgani ma'qul.

Taqsimlangan takrorlaşning foydasini şunday izohlaş mumkin: so'z biroz unutila boşlagan paytda uni esga tuşirişga uriniş xotira izini yanada kuçliroq mustahkamlaydi. Ya'ni ma'lum darajadagi qiyinçilik o'rganişga to'sqinlik qilmaydi, aksinça foyda beradi. Şu sababli so'zni unutiş arafasida qayta ko'riş, ya'ni takrorlaşni vaqtga bo'lib boriş, ketma-ket o'qişdan ko'ra samaraliroq bo'ladi.

Amalda bu quyidagiça ko'rinişi mumkin. Yangi so'z o'rganilgandan keyin uni bir kundan, uç kundan, bir haftadan va undan keyin yana bir oy o'tgaç takrorlaş mumkin. Har safar so'zning tarjimasiga qaramasdan avval o'zingiz eslaşga urinib ko'rgan ma'qul. Bunday jadvalni kartoçkalar va maxsus takrorlaş ilovalari qulay taşkil etişga yordam beradi. Şunday qilib, takrorlaş «qança marta» degan savoldan ko'ra, «qaçon va qanday» degan savolga ko'proq bog'liq ekani ma'lum bo'ladi.

Metodlar. Şunday qilib, yangi so'zlarni unutiş faqat xotira hajmiga bog'liq emas. O'rganiş jarayonida axborot qanday qabul qilinişi, qayta işlanişi va mustahkamlanişi ham muhim ahamiyatga ega. Şuning uçun faqatgina o'rganiş emas, takrorlaş ham muhim. Takrorlaş o'rganilgan ma'lumotlarni xotirada mustahkamlaşga xizmat qiladigan asosiy strategiyalardan biridir. Yangi so'z bir marta eşitilgan yoki o'qilgan bo'lsa, uning xotiradagi izi hali nozik bo'ladi va vaqt o'tişi bilan tez susayadi. Nemis psixologi Hermann Ebbinghaus ham o'z tajribalarida yangi o'rganilgan ma'lumotning eng katta qismi dastlabki soat va kunlarda unutilişini, keyin esa unutiş sekinlaşişini kuzatgan. Takrorlaş esa bu izni qayta faollaştirib, uni kuçaytiradi va keyingi safar eslaşni osonlaştiradi. Biroq takrorlaşning samaradorligi faqat uning soniga emas, balki qanday taşkil etilişiga ham bog'liq.

Ko'pçilik til o'rganuvçilar yangi so'zlarni ketma-ket bir neça marta o'qiş yoki ularning tarjimasini qayta-qayta ko'riş orqali yodlaşga harakat qiladi. Masalan, o'rganuvçi daftariga quyidagiça yozib, bir neça marta ovoz çiqarib o'qiydi:

reluctant - istamaydigan, ikkilanadigan
reluctant - istamaydigan, ikkilanadigan
reluctant - istamaydigan, ikkilanadigan

Bunday usul dastlab tanişlik hissini kuçaytirişi mumkin: so'z ko'z oldida turgani uçun o'rganuvçiga u allaqaçon o'zlaştirilgandek tuyuladi. Lekin bu ko'pinça aldamçi hissiyot bo'ladi. So'zni ko'rib turib taniş va uni yopib qo'yib, o'zi eslab aytiş bir xil narsa emas. Masalan, o'rganuvçi matnda *reluctant* so'zini uçratsa, «ha, bu so'zni bilaman» deb o'ylaydi. Lekin kimdir undan «Ikkilanib turgan odamni inglizça qanday

(cc) BY

ataymiz?» deb so'rasa, so'z yodiga kelmay qolişi mumkin. Birinçi holatda so'z ko'z oldida bo'lgani uçun uni faqat taniş kerak (recognition), ikkinçisida esa uni xotiradan o'zi topib çiqariş kerak (recall), bu esa ança qiyin.

Ketma-ket takrorlaşda so'z qisqa muddatli xotirada uşlab turiladi, şuning uçun o'şa zahoti tekşirilganda natija yaxşi bo'ladi. Ammo bir neça soat yoki kundan keyin ko'p so'zlar xotiradan çiqib ketadi va o'rganuvçi «hammasini yodlagan edim-ku» deb hayron bo'ladi. Natijada sarflangan vaqt va kuç kutilgan samarani bermaydi. Bu hodisa ko'pinça imtihon oldidan «bir keçada yodlaş» (cramming) holatida kuzatiladi. Talaba keçasi bilan 60 ta so'zni yodlab, ertasi kuni imtihondan o'tişi mumkin, lekin bir hafta o'tgaç ularning yarmidan ko'pi esida qolmaydi.

Quyidagi ikki o'rganuvçini soliştirib ko'raylik. Ikkalasi ham *reluctant* so'zini 5 marta takrorlaydi:

A o'rganuvçi (ziç takrorlaş): bir kunda, 10 daqiqa içida 5 marta takrorlaydi.

B o'rganuvçi (taqsimlangan takrorlaş): 5 ta takrorlaşni 1 oyga yoyadi: o'rgangan kuni, 1 kundan, 3 kundan, 1 haftadan va 1 oydan keyin.

A o'rganuvçi o'şa kuni so'zni mukammal biladigandek tuyuladi, ammo B o'rganuvçi bir oydan keyin ham so'zni eslab qoliş ehtimoli ança yuqori. Çunki B har safar so'zni biroz unutib bo'lganda qayta esga tuşirişga urinadi. Bunda takrorlaş vaqtini to'g'ri taqsimlaş ma'lumotni uzoq muddat saqlaşga yordam berişi mumkin. Muhim jihati şundaki, eng samarali oraliq doim bir xil emas. U ma'lumotni qança vaqtdan keyin eslaş kerakligiga bog'liq: imtihon bir haftadan keyin bo'lsa, takrorlaşlar orasidagi tanaffus qisqaroq, bir neça oydan keyin bo'lsa, uzunroq bo'lgani ma'qul. Boşqaça aytganda, so'zni uzoq vaqt saqlamoqçi bo'lgan odam takrorlaş oraliqlarini ham kengroq tanlaşi kerak.

Taqsimlangan takrorlaşning foydasini şunday izohlaş mumkin: so'z biroz unutila boşlagan paytda uni esga tuşirişga uriniş xotira izini yanada kuçliroq mustahkamlaydi. Ya'ni ma'lum darajadagi qiyinçilik o'rganişga to'sqinlik qilmaydi, aksinça foyda beradi. Agar so'z hali yaxşi esda turgan paytda takrorlansa, miya uni topiş uçun deyarli kuç sarflamaydi va mustahkamlaniş ham kuçsiz bo'ladi. So'z unutila boşlaganda esa uni xotiradan qidirib topiş uçun ko'proq harakat kerak bo'ladi va aynan şu harakat izni kuçaytiradi. Şu sababli so'zni unutiş arafasida qayta ko'riş, ya'ni takrorlaşni vaqtga bo'lib boriş, ketma-ket o'qişdan ko'ra samaraliroq bo'ladi.

Takrorlaş sifatiga ta'sir qiluvçi yana bir jihat takrorlaş şaklidir. So'zni şunçaki qayta o'qişdan ko'ra, uni faol esga tuşirişga uriniş samaraliroq. Masalan, kartoçkaning bir tomonida inglizça so'z, orqasida tarjimasi yozilgan bo'lsa, avval tarjimaga qaramay eslaşga uriniş kerak:

Old tomoni: "reluctant" → ? (avval o'zingiz eslang, keyin kartoçkani aylantiring)

Orqa tomoni: istamaydigan, ikkilanadigan

Faol eslaş tarjimani ko'rib turib o'qişga qaraganda ko'proq aqliy kuç talab qiladi,

(cc) BY

şu bois xotirani ham ko'proq mustahkamlaydi. Bu usulni yanada samaraliroq qiliş uçun so'zni alohida emas, gap içida takrorlaş foydali. Masalan:

Şe was reluctant to speak in front of the class.

He gave a reluctant nod and left the room.

Bunday jumlalar so'zning ma'nosi bilan birga uning qanday qo'llanişini, ya'ni *reluctant to + fe'l* qolipini ham eslatadi. Natijada so'z nafaqat esda qoladi, balki nutqda işlatişga ham tayyor bo'ladi.

Amalda taqsimlangan takrorlaş quyidagiça ko'rinişi mumkin. Yangi so'z o'rganilgandan keyin uni bir kundan, uç kundan, bir haftadan va undan keyin yana bir oy o'tgaç takrorlaş mumkin. Misol uçun, duşanba kuni *reluctant*, *get over*, *run out of* ifodalarini o'rgangan o'rganuvçi jadvalni quyidagiça tuzişi mumkin:

Duşanba: yangi so'zlar o'rganiladi, har biridan gap tuziladi.

Seşanba: kartoçkalar orqali tekşiriladi (1 kundan keyin).

Juma: yana tekşiriladi, eslay olmaganlari belgilab qo'yiladi (3 kundan keyin).

Keyingi duşanba: har bir so'zdan yangi gap tuziladi (1 haftadan keyin).

*Bir oydan keyin***:** hammasi qayta tekşiriladi.

Har safar eslay olmagan so'zlar keyingi takrorlaşda yana qisqaroq oraliq bilan qaytariladi, yaxşi eslab qolinganlar esa uzoqroq oraliqqa o'tkaziladi. Bunday jadvalni kartoçkalar va maxsus takrorlaş ilovalari qulay taşkil etişga yordam beradi. Har safar so'zning tarjimasiga qaramasdan avval o'zingiz eslaşga urinib ko'rgan ma'qul.

Şunday qilib, takrorlaş «qança marta» degan savoldan ko'ra, «qaçon va qanday» degan savolga ko'proq bog'liq ekani ma'lum bo'ladi. Bir kunda 20 marta takrorlaşdan ko'ra, bir neça hafta davomida 5 marta, har safar o'zini sinab ko'rib va so'zni yangi gaplarda işlatib takrorlaş ança samarali natija beradi. Şuning uçun til o'rganuvçi o'z vaqtini rejalaştirişda faqat yangi so'zlar sonini ko'paytirişga emas, ilgari o'rganilganlarni o'z vaqtida qayta esga tuşirişga ham yetarli o'rin ajratişi lozim.

Mnemonika: eslab qoliş san'ati. Mnemonika (yunonça *mnemonikon*, ya'ni «xotiraga oid») axborotni eslab qoliş va keyinçalik qayta esga tuşirişni osonlaştiriş uçun qo'llaniladigan maxsus usullar majmuasidir. U yangi ma'lumotlarni obrazlar, o'xşaşliklar, assotsiatsiyalar va mavjud bilimlar bilan bog'laşga asoslanadi. Mnemonik usullarning asosiy maqsadi yangi ma'lumotni inson uçun mazmunliroq va esda qolarliroq qilişdir. Bu g'oya işlov beriş çuqurligi konsepsiyasi bilan uyg'un: ma'lumot mavjud bilimlar bilan bog'langanda çuqurroq qayta işlanadi va barqarorroq xotira izi qoldiradi [Craik & Lockhart, 1972]. Ayniqsa, xorijiy til o'rganuvçilar notaniş so'zlarni taniş tuşunçalar bilan bog'laş orqali ularni eslab qolişni osonlaştirişlari mumkin.

Mnemonikaning tarixiy ildizlari qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Qadimgi manbalarda Simonides nomi bilan bog'liq holda eslab qolişning joylarga asoslangan usuli haqida hikoya qilinadi. Rivoyatga ko'ra, şoir Simonides ziyofat zalidan çiqqanidan ko'p o'tmay zalning şifti qulab tuşgan. Halok bo'lganlarning jasadlarini

(cc) BY

tanib bo'lmaganda, Simonides mehmonlar qaysi joyda o'tirganini esga tuşirib, ularni aniqlab bergan. Şundan «ma'lumotni joy bilan bog'lab eslab qoliş» g'oyasi paydo bo'lgan, deyiladi.

Hozirgi kunda method of loci, ya'ni makonlar usuli deb ataladigan bu texnikada inson o'zi yaxşi biladigan joylarni tasavvur qilib, eslab qolişi kerak bo'lgan ma'lumotlarni şu joylar bilan bog'laydi [Britiş Journal of Physiology, 2025]. Uşbu usulning zamonaviy qo'llanişida inson, masalan, o'z uyidagi xonalarni tasavvur qilib, har bir xonaga ma'lum bir so'z yoki tuşunçani biriktirişi mumkin. Keyinçalik xonalarni xayolan tartib bilan aylanib çiqiş orqali tegişli ma'lumotlarni ham qayta eslaşga harakat qiladi. Masalan, o'rganuvçi quyidagi to'rtta inglizça so'zni uyidagi to'rt joyga joylaştiradi:

Eşik oldi → reluctant *(istamaydigan):* do'stingiz eşik oldida oyoqlarini tirab turibdi va uyga kirişni xohlamayapti.

Oşxona → ingredient (masalliq): *stol ustida katta qozon, içiga turli masalliqlar taşlanyapti.*

Yotoqxona → exhausted ***(***juda çarçagan***):*** siz karavotga yiqilib, ko'zingizni oçişga ham madoringiz yo'q.

Hammom → overflow ***(***toşib ketmoq***):*** vanna to'lib, suv polga toşib çiqyapti.

Keyin o'rganuvçi xayolan eşikdan kirib, xonalarni ketma-ket aylanib çiqadi va har bir joyda nima ko'rganini eslaydi. Obraz qançalik yorqin, hatto g'alati bo'lsa, şunçalik yaxşi esda qoladi. Bitta «marşrut»dan qayta-qayta foydalaniş ham mumkin, faqat har safar yangi obrazlar qo'yiladi.

Mnemonikaning til o'rganişda keng qo'llaniladigan yana bir usuli kalit so'z (keyword) usulidir. U ikki bosqiçdan iborat. Birinçi bosqiçda xorijiy so'zga o'xşaş tovuşli o'z tilingizdagi so'z (kalit so'z) topiladi. Ikkinçi bosqiçda kalit so'z bilan xorijiy so'zning ma'nosini birlaştiruvçi yorqin obraz yaratiladi.

Masalan, ingliz tilidagi *an odd ball* (oddball) iborasi «g'alati odam» degan ma'noni anglatadi. Uni eslab qoliş uçun o'rganuvçi uşbu so'zni «odob» so'zi bilan bog'lab, xayolida noodatiy va kulgili obraz yaratişi mumkin. Masalan, rasmiy qabul marosimida odob qoidalariga e'tibor bermay, hamma o'rtasida to'p o'ynab yurgan odamni tasavvur qiling. Şunday odamni *an odd ball*, ya'ni g'alati odam deb ataş mumkin. Yana bir neça misol:

borrow (qarzga olmoq): kalit so'z: «bor» (mavjud). Obraz: do'stingizda pul bor, siz undan qarzga olmoqçisiz: *Can I borrow some money?*

ugly (xunuk): kalit so'z: «o'g'li». Obraz: Alişer o'g'li, ya'ni «Alişer ugli» juda xunuk qiyofali odam: *That monster looked really ugly.*

stubborn (o'jar): kalit so'z: «stop» + «born». Obraz: tug'ilganidanoq «stop» deb, joyidan jilmay turib olgan çaqaloq: *He is too stubborn to çange his mind.*

Bu misollarda obrazning bir qismi tovuş o'xşaşligiga, qolgan qismi ma'noga

(cc) BY

tayanadi. Aynan şu ikki qism birga işlaganda so'z va ma'no o'rtasida bog'laniş hosil bo'ladi.

Biroq bir jihatni unutmaslik kerak. So'zlar o'rtasidagi tovuş o'xşaşligi ularning ma'nolari ham bir xil ekanini anglatmaydi. Bu faqat so'zni eslab qolişga yordam beruvçi vosita hisoblanadi. Masalan, «o'g'li» so'zi *ugly* so'zini eslatsa-da, ikkalasining ma'nosi umuman boşqa. Kalit so'z so'zga «eşik» oçadi, uning talaffuzi, ma'nosi va qo'llanişini esa alohida o'rganiş kerak. Şuning uçun obraz yordamida so'zni esga tuşirib olgaç, uni darhol gapda işlatib ko'riş foydali:

The old house looked ugly, but the garden was beautiful.

I don't like to borrow money from my friends.

Vaqt o'tib, so'z mustahkamlanganda obrazga ehtiyoj kamayib, so'zning o'zi to'g'ridan-to'g'ri esga tuşadigan bo'ladi.

Mnemonik usullardan yana biri qisqartmalardan foydalanişdir. Misol uçun, ingliz tilidagi teng bog'lovçilarni eslab qolişda FANBOYS qisqartmasi qo'llaniladi:

- ✓ F - For
- ✓ A - And
- ✓ N - Nor
- ✓ B - But
- ✓ O - Or
- ✓ Y - Yet
- ✓ S - So

Uşbu qisqartma ingliz tilidagi yettita teng bog'lovçini eslab qolişga yordam beradi. Biroq ularning grammatik vazifalari va qo'llaniş qoidalarini ham o'rganiş zarur. Masalan, qisqartma *for* so'zining bu yerda «çunki» ma'nosida kelişini aytmaydi, *yet* so'zining esa «ammo» ma'nosini bildirişini ko'rsatmaydi:

He stayed home, for he was ill. (= çunki u kasal edi)

Şe studied hard, yet şe failed the exam. (= ammo imtihondan o'ta olmadi)

I wanted to go out, but it was raining.

He didn't call, nor did he write.

Şuningdek, bunday bog'lovçilar ikki mustaqil gapni bog'laganda odatda oldidan vergul qo'yiladi. Qisqartma esa bu qoidani eslatmaydi.

Ingliz tilini o'rganişda qofiya va jumlaga asoslangan mnemonikalar ham keng tarqalgan. Masalan, imlo qoidasini eslatuvçi maşhur qofiyali ibora:

"I before E, except after C." (*believe, field*, lekin *receive, ceiling*)

Bu qoida ko'p holatda işlasa-da, istisnolari ham bor: *weird, science, neighbour*. Demak, mnemonika qoidani eslab qolişga yordam beradi, lekin istisnolarni baribir alohida o'rganiş kerak. Imlo uçun yana bir usul so'zning murakkab qismini obrazli iboraga aylantirişdir:

*necessary***:** *one Collar and two Sleeves* (bitta c, ikkita s)

(cc) BY

*separate***:** *there is a rat in separate* (-arat- qismi)

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xorijiy til o'rganuvçilarning yangi so'zlarni tez unutişi inson xotirasining tabiiy xususiyatlari, atrof-muhitdan kelayotgan çalg'itişlar, takrorlaşning noto'g'ri taşkil etilişi va o'rganilgan so'zlardan amalda kam foydalaniş kabi omillar bilan bog'liq bo'lişi mumkin. Unutiş har doim ham xotiraning zaifligini bildirmaydi. Ko'pinça so'z dastlab yuzaki qayta işlangani, uni esga tuşiriş uçun yetarli bog'lanişlar hosil qilinmagani yoki esga tuşiriş maşq qilinmagani sababli xotiradan çiqib ketadi. Bunda so'zni tuşuniş va uni kerakli vaqtda eslab, nutqda qo'llaş bir xil bilim emasligini ham yodda tutiş kerak. Eng muhimi, yangi so'zlarni şunçaki qayta o'qiş bilan çeklanmay, ularni xotiradan esga tuşiriş, gaplarda işlatiş va turli kontekstlarda qo'llaşga intilişdir. Samarali til o'rganişning asosiy şartlaridan biri yangi so'zlarni mazmunli o'zlaştiriş, vaqt oralig'ida takrorlaş va ularni faol nutqiy faoliyatga tatbiq etişdir. Bu uç qadam bir-birini to'ldiradi: mazmunli o'zlaştiriş so'zga mustahkam tayanç beradi, vaqt oralig'ida takrorlaş uni xotirada saqlaydi, faol qo'llaş esa uni haqiqiy muloqot vositasiga aylantiradi. Şuning uçun lug'at boyligini oşirişda o'rganilgan so'zlar soniga emas, ularning qançalik uzoq saqlanişi va nutqda qançalik erkin qo'llanişiga e'tibor qaratiş zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Craik, F. I. M., & Lockhart, R. S. (1972). Levels of processing: A framework for memory research. Journal of Verbal Learning and Verbal Behavior, 11(6), 671–684. https://psych205.stanford.edu/papers/CraikLockhart72.pdf

2. Craik, F. I. M., & Tulving, E. (1975). Depth of processing and the retention of words in episodic memory. Journal of Experimental Psychology: General, 104, 268–294.

3. Cepeda, N. J., Pashler, H., Vul, E., Wixted, J. T., & Rohrer, D. (2006). Distributed practice in verbal recall tasks: A review and quantitative synthesis. Psychological Bulletin, 132(3), 354–380. https://doi.org/10.1037/0033-2909.132.3.354

4. Ahour, T., & Berenji, S. (2015). A comparative study of rehearsal and loci methods in learning vocabulary in EFL context. Theory and Practice in Language Studies, 5(7), 1451. https://doi.org/10.17507/tpls.0507.18

5. Keysan, F. (2025). An investigation of the impacts of mnemonic strategies on L2 vocabulary comprehension of primary students. Theory and Practice of Second Language Acquisition. https://doi.org/10.31261/tapsla.17209

6. Zarei, A. A., & Keysan, F. (2016). The effect of mnemonic and mapping techniques on L2 vocabulary learning. Applied Research on English Language, 5(1), 17–32. https://doaj.org/article/0245af8463c44ace87e8e60f7b6fa45b

7. Caluya, N. R., Tian, X., & Chandler, D. M. (2023). Comparison of AR and VR

memory palace quality in second-language vocabulary acquisition. Electronic Imaging. https://doi.org/10.2352/EI.2023.35.10.HVEI-220

8. Raugh, M. R., & Atkinson, R. C. (1975). A mnemonic method for learning a second-language vocabulary. Journal of Educational Psychology, 67(1), 1–16.

9. Roediger, H. L., & Karpicke, J. D. (2006). Test-enhanced learning: Taking memory tests improves long-term retention. Psychological Science, 17(3), 249–255. https://doi.org/10.1111/j.1467-9280.2006.01693.x

10. Beknazarova Iroda Yormamatovna. (2025). A General Approach to the Analysis of the Cognitive and Functional Features of Indirect Naming in Texts. Spanich Journal of Innovation and Integrity, 42, 473–478. Retrieved from https://www.sjii.es/index.php/journal/article/view/614

11. Beknazarova, I. Y., & Nosirova, R. A. (2022). Adaptation of students in a higher educational institution: analysis of problems, search for resources. ОАКда эътироф этилган "Сервис" илмий-амалий журнали,

12. Beknazarova, I. Y., & Jo'rayeva, D. U. (2025). Bilvosita nomlashning umumnazariy muammolari (ingliz tili misolida). Axborotnoma, 6(148/2), 5-13. https://axborotnoma.uz/en/research/3247/

13. Yormamatovna, B. I., & Usmonalievna, J. D. (2023). The role of competency elements in teaching English sounds and their pronunciation. Int. J. Lit. Lang., 3(02), 4-6. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue02-02

14. Beknazarova, I. Y., & Qilicheva, M. M. Q. (2026). How are social media changing the lives of young people? Science and Education, 7(5), 223-225. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/8862

15. Pérez-Serrano, M., Nogueroles-López, M., & Duñabeitia, J. A. (2022). Effects of semantic clustering and repetition on incidental vocabulary learning. Frontiers in Psychology, 13. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2022.997951

16. Nakata, T., & Suzuki, Y. (2019). Effects of massing and spacing on the learning of semantically related and unrelated words. Studies in Second Language Acquisition.

17. Tinkham, T. (1997). The effects of semantic and thematic clustering on the learning of second language vocabulary. Second Language Research, 13(2), 138–163. https://synapsesocial.com/papers/W2038339147

18. Madla Muhammedali, Beknazarova Iroda Yormamatovna, & Jurayeva Diyora Usmonaliyevna. (2026). Stimulating motivational engagement in vocabulary learning: evidence from the Top and Tail game in an EFL classroom. Science and Education, 7(6), 184–188. Retrieved from https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/8971

19. Iroda Yormamatovna Beknazarova, & Zarina Fozil-qizi Sayfullayeva. (2026). Tilning kelib chiqishi masalalari va tilshunoslik fanining shakllanishiga doir nazariy

(cc) BY

qarashlar. Science and Education, 7(6), 302–309. Retrieved from https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/8991